

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ADILOV BOBIR BEHBUDIYEVICH

**MA’MURIY QAMOQQA OLISH JAZOSINING QO‘LLANILISHI
VA IJROSINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Adilov Bobir Behbudiyevich

Ma'muriy qamoqqa olish jazosining qo'llanilishi va ijrosini
takomillashtirish3

Адиллов Бобир Бехбудиевич

Совершенствование применение и исполнение наказания
административного ареста23

Adilov Bobir Bekhbudiyevich

Improving the application and execution of the punishment
of administrative arrest45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ADILOV BOBIR BEHBUDIYEVICH

**MA’MURIY QAMOQQA OLISH JAZOSINING QO‘LLANILISHI
VA IJROSINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1023 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yuldashev Djaxongir Xayitovich**
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Bekov Ixtiyor Rustamovich**
yuridik fanlar doktori, professor

Xojiyev Erkin Tuygunovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” aprel kuni soat 14:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 742012, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko‘chasi № 1).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 742012, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko‘chasi № 1).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil “___” apreldagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

Ye.D. Kutibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

G.M. Berdimuratova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Z.A. Reymova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda jinoyatchilik sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarning oldini olish global ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo davlatlari huquqbuzarlik sodir etganligi uchun jamiyatdan ajratilgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan birga, qamoqqa olingan shaxslarning xavfsizligini kafolatlash hamda ichki rejim qoidalariga rioya etilishining samaradorligini oshirishga intilmoqda. Shuningdek, xalqaro hamjamiyat tomonidan jinoyatga olib keluvchi ijtimoiy xavfi yuqori qilmishlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari samaradorligini oshirish hamda javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash imkoniyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda shaxsni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq jazolarni tayinlash va ularni ijro etish tizimini takomillashtirish, jumladan bunday turdagi jazolarni qo'llash asoslari va doirasini belgilash, jazo choralari samaradorligi hamda ta'sirchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etish, ularning ijro etilish tartib-qoidalarini xalqaro standartlar va huquq me'yorlariga moslashtirish, shuningdek mazkur turdagi jazo tayinlangan shaxslarning hulq-atvori ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda ma'muriy-huquqiy munosabatlarda sudlarning rolini oshirish, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishga alohida ahamiyat berilib, shaxsni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq jazolarni qo'llash asoslarini takomillashtirish, shu jumladan, ma'muriy qamoqqa olish jazosining samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, uni qo'llashda shaxsning huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish masalalari birlamchi vazifalar etib belgilangan. Bu esa, ma'muriy qamoq jazosini tayinlash va ijrosini tashkil etish amaliyotiga yangicha yondashuv bilan qarash, ushbu sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish hamda tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Qolaversa, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ongida qonunga itoatkorlik munosabatini shakllantirish, jazo o'tash uchun mo'ljallangan maxsus qabulxonalar faoliyatini umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalari hamda zamon talablariga mos ravishda tashkil etish, ularda ilg'or ish usullarini, qonunchilik va intizomga rioya etilishini nazorat qilishning samarali tizimini joriy etish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (1994), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016), "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonuni (2017), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (2021), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan maxsus qabulxonalar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi (2017), "Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni maxsus qabulxonada saqlash bilan bog'liq xarajatlarni

undirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi (2018) qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda jazo va uning turlari, jazo qo'llash asoslari va shartlariga doir masalalar, shuningdek jazoni ijro etish muammolari Q.R. Abdurasulova, A.G. Zakirova, R.A. Zufarov, I. Ismailov, R. Kabulov, J.A. Nematov, A.A. Otajonov, Yu.S. Pulatov, M.A. Rajabova, A.K. Rasulev, M.X. Rustambaev, F. Taxirov, M. Usmonaliev, M.Q. O'razaliev, U.Sh. Xoliqulov va A.S. Yakubovlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ma'muriy jazo tizimi va turlariga doir umumiy masalalar X.R. Alimov, S.T. Axmedova, M.Z. Ziyodullaev, Ye.D. Kutibaeva, Z.A. Reymova, S.M. Selimanova, A.S. Tursunov, E.T. Xojiev, Dj.X. Yuldashev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Jazo turi sifatida ma'muriy qamoqqa olishni tayinlash va ijro etish masalalari yuzasidan MDH davlatlarida E.F. Baysalueva, A.V. Dolgix, I.A. Galagan, A.V. Kirin, S.N. Maxina, V.V. Novosyolova, G.V. Ogrina, I.P. Plexanova, M.M. Poleshuk, Ye.T. Suponina, I. Tarasov, I.V. Timoshenko kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Respublikamizda ma'muriy qamoqqa olish jazosiga aloqador bo'lgan, ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashning huquqiy asoslari va takomillashtirish masalalari M.Sh. Najimov (2010), axloq tuzatish ishlari jazosining ijrosi T.H. Altmishev (2021), bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash muammolari Q.Yu. Rozimova (2020), ozodlikni cheklash jazosining jinoyat va jinoyat-ijroiya huquqiy jihatlari M.M. Xaydarov (2022), mahkumlar bilan muomalada bo'lishning xalqaro andozalari va O'zbekistonning jinoyat-ijroiya siyosati A.A. Saidov (2022) tomonidan nomzodlik va falsafa doktori dissertatsiyasi darajasida tadqiq etilgan¹.

Shu bilan birga, mamlakatimiz sud-huquq tizimidagi so'ngi islohotlar natijalari, amaldagi normativ-huquqiy baza va huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek xalqaro standartlar va xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda ma'muriy qamoqqa olish jazosining qo'llanilishi va ijrosini ta'minlash muammolari maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida ma'muriy qamoqqa olish jazosining qo'llanilishi va ijrosini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston hududida qamoq jazosi va uning ijrosini ta‘minlovchi muassasalar vujudga kelishi va rivojlanishining retrospektiv tahlilini amalga oshirish;

ma‘muriy qamoqqa olish tushunchasi, mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish orqali uning ma‘muriy jazo tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatini ochib berish;

ma‘muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash bo‘yicha huquqiy amaliyot natijalari tahlili asosida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib berish;

ma‘muriy qamoqqa olish jazosi ijrosini tashkil etishning bugungi holatini o‘rganish asosida huquqni qo‘llash amaliyotida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

ma‘muriy qamoqni qo‘llash va ijrosini tashkil etish borasidagi ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va milliy tizimga tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning ob‘ekti ma‘muriy qamoqqa olish jazosining qo‘llanilishi va ijrosini ta‘minlash bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot predmetini ma‘muriy qamoqqa olish jazosining qo‘llanilishi va ijrosini ta‘minlash sohasidagi muammolar, ushbu sohani tartibga soluvchi huquq normalari va ularni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlar hamda metodologik-uslubiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so‘rovi, empirik material va statistik ma‘lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini ma‘muriy-huquqiy vositalar orqali kafolatlashni kuchaytirish maqsadida shahvoniy shilqimlik va oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik huquqbuzarliklarini sodir etganlik uchun ma‘muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo chorasining qo‘llanilishi lozimligi asoslantirilgan;

huquqbuzarlik sodir etgan shaxs jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan taqdirda, sud haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish tariqasidagi jazoning to‘rt soatini bir kunlik ma‘muriy qamoqqa almashtirishi mumkinligi asoslantirilgan;

ma‘muriy qamoqqa olingan shaxsning o‘zi yoki oilasiga ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilganligi, shuningdek yaqin qarindoshining vafoti yoxud kasalligi natijasida og‘ir ahvolda ekanligi uning maxsus qabulxona hududidan vaqtinchalik chetga chiqishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi lozimligi asoslantirilgan;

ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslar huquqlarining kafolatlanish darajasini yanada oshirish maqsadida ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslarning maxsus qabulxona hududidan chetga chiqish vaqti ma‘muriy qamoqni o‘tash muddatiga qo‘shib hisoblanishi shartligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“ma‘muriy qamoqqa olish” va “ma‘muriy qamoqqa olingan shaxs” tushunchalariga mualliflik ta‘riflari ishlab chiqildi, ma‘muriy qamoqqa olish chorasining maqsadi, vazifalari, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek jazo tizimidagi o‘rni asoslab berildi;

O‘zbekiston hududida qamoq jazosi va uning ijrosini ta’minlovchi muassasalarning vujudga kelishi va rivojlanishi retrospektiv tahlil qilindi hamda kelgusi istiqbollari prognoz qilindi;

ma’muriy qamoqqa olish tarzidagi jazoni tayinlashda ayollar va oltmish besh yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan differensial yondashuvni joriy etish taklif etildi;

ma’muriy qamoqni o‘tash joylarini o‘zboshimchalik bilan tashlab ketish yoki ma’muriy qamoqni o‘tashdan bo‘yin tovlaganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilash zarurati asoslantirildi;

ma’muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash va ijro etish tartibini belgilovchi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonunchilik normalari, qonunni qo‘llash amaliyotining ijobiy tajribalari, sohaga doir besh yillik (2018–2023-yillar) empirik va statistik ma’lumotlar tahlili, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha 300 ta sud qarori, 346 nafar mutaxassislar (312 nafari ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligi xizmati, 34 nafari sud organlari xodimlari) o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish orqali isbotlangan bo‘lib, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, yetakchi xorijiy hamda milliy nashrlarda e’lon qilingan, olingan natijalar esa, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* undagi xulosa va tavsiyalardan ma’muriy qamoqqa olish jazosining tushunchasi, mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlariga oid nazariy-metodologik qarashlarni yanada rivojlantirishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, ular natijasida shakllantirilgan taklif va tavsiyalardan ma’muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash va ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda ma’muriy qamoqqa olish jazosining qo‘llanilishi va ijrosini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

shahvoniy shilqimlik va oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik huquqbuzarliklarini sodir etganlik uchun ma’muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo chorasini qo‘llashga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son Qonunining 5-moddasi oltinchi va o‘n birinchi bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 6-iyundagi 04/10-10-45-son ma’lumotnomasi*). Mazkur takliflarning qonunchilikda o‘z aksini topishi shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini ma’muriy-huquqiy vositalar orqali kafolatlashni kuchaytirishga xizmat qilgan;

huquqbuzarlik sodir etgan shaxs jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish tariqasidagi jazoning to'rt soatini bir kunlik ma'muriy qamoqqa almashtirishi mumkinligini qonunchilikda belgilashga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-829-son Qonunining 5-moddasi to'rtinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 6-iyundagi 04/10-10-45-son ma'lumotnomasi*). Mazkur taklifning qonunchilikda o'z aksini topishi javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga hamda jazo turlarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan;

yaqin qarindoshining vafoti yoki hayotiga tahdid soluvchi og'ir kasallik, shuningdek ma'muriy qamoqqa olingan shaxsning o'zi yoki oilasiga ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisalarni qamoqqa olingan shaxsning maxsus qabulxona hududidan vaqtinchalik chetga chiqish asoslari sifatida belgilashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2018-yil 15-maydagi 135-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan maxsus qabulxonalar hududidan ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarning chetga chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomning to'rtinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamentining 2023-yil 10-iyuldagi 15/3026-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarning maxsus qabulxona hududidan chetga chiqish asoslari yaratilishiga xizmat qilgan;

ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarning maxsus qabulxona hududidan chetga chiqish vaqtini ma'muriy qamoqni o'tash muddatiga qo'shib hisoblashga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2018-yil 15-maydagi 135-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan maxsus qabulxonalar hududidan ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarning chetga chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomning ikkinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamentining 2023-yil 10-iyuldagi 15/3026-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning inobatga olinishi ma'muriy qamoqqa olish jazosini o'tayotgan shaxslar huquqlarining kafolatlanish darajasini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 130 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzucining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzucining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinishi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Ma‘muriy qamoqqa olish jazosining ilmiy-nazariy tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz hududida qamoq jazosi va uning ijrosini ta‘minlovchi muassasalar vujudga kelishi va rivojlanishining retrospektiv tahlili amalga oshirilgan, shuningdek ma‘muriy qamoqqa olish tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlarining huquqiy tavsifi yoritilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“O‘zbekiston hududida qamoq jazosi va uning ijrosini ta‘minlovchi muassasalar vujudga kelishi va rivojlanishining retrospektiv tahlili”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi uchun shaxsni jamiyatdan ajratishga doir tartib-qoidalarning paydo bo‘lishi, ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni saqlash uchun mo‘ljallangan muassasalarning shakllanishi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ma‘muriy qamoqqa olish tariqasidagi jazoni qo‘llash tartibi va asoslarining rivojlanishi hamda o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.

Dissertant tomonidan O‘zbekiston hududida qamoq (shaxsni jamiyatdan ajratish) jazosi va uning ijrosini ta‘minlovchi muassasalarning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi shartli ravishda uch asosiy bosqichga bo‘lib o‘rganilgan:

1) jinoyat va jazo masalalari sha‘riy-huquqiy jihatdan tartibga solinib, islom huquqida qamoqqa olish jazosini qo‘llash borasida qozilik amaliyoti joriy etilgan, shuningdek jazolash tizimi insonparvarlik tamoyillariga asoslanmagan hamda markazlashmagan holda boshqarilgan *Chor Rossiyasi istilosigacha bo‘lgan davr*;

2) bir vaqtning o‘zida qamoqxona, axloq tuzatish uyi, shuningdek, qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar saqlanadigan joy sifatida foydalanilgan Sovet ittifoqi hokimiyatining maxsus muassasalari tashkil etilgan hamda asosiy faoliyati jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi ishlarni ko‘rishga yo‘naltirilgan xalq sudlari faoliyat yuritgan *Chor Rossiyasi va Sovet Ittifoqi hukmronligi davri*;

3) jamiyatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq jarayonda jazo choralarning mohiyatida repressiv xususiyatlar kamayib, shaxsni axloqan tuzatish hamda insonparvarlik g‘oyalari yo‘g‘rilgan, uni jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlarining kengayishi hamda qamoqqa olish jazosining samaradorligi va ta‘sirchanligini oshirishga qaratilgan yangi penitensiar siyosatga yo‘naltirilgan *Mustaqillikning dastlabki yillari va Yangi O‘zbekiston davri*.

VII asrda Arabiston yarim orolida tashkil topgan Islom davlatida asosiy huquq manbai – Qur‘oni Karim bo‘lib, unda jinoyat va jazo masalalari sha‘riy-huquqiy jihatdan tartibga solingan. Tabiiyki, islom amal qilgan davlatlarda, shu jumladan Markaziy Osiyo hududida ham shariat qonun-qoidalarining ustuvorligi tan olingan.

Qur'onda o'g'rilik qilgan erkak va ayolning qo'lini kesish kerakligi ko'rsatilganini nazarda tutib, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) o'g'rilik qilgan erkagu ayol, zodagonu bechoraga ushbu jazo bir xil qo'llanilishini aytganligi haqidagi bir necha hadislar mavjud. Shariat qoidalariga ko'ra ikki marta o'g'rilik qilgan (o'ng va chap qo'li kesilgan) kishi uchinchi marta ushbu jinoyatni sodir etsa, jamiyatdan ajratilib, tavba qilmagunicha qamab, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilgan.

Muallif tomonidan Abu Yusufning "Xiroj (Al-Xiroj)" asarining "Axloqsizlik, o'g'rilik bilan shug'ullanadigan kimsalar va jinoyatlarga beriladigan jazolar" deb nomlangan 33-bobida gumon qilinuvchi dastlabki qamoqxonada saqlangani bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlar davlat xazinasidan qoplanishi, jinoyat uchun jazo muqarrarligi, bahsli holatlarda hadd yoki qasos (darra urish yoki o'lim) kabi og'ir turdagi jazolarni qo'llamasdan, yengilroq jazo hisoblangan ta'zir (tovon to'lash, qamoq, yarashuv kabi) turlarini qo'llash masalalari batafsil tahlil qilingan bo'lib, shaxsning ozodligini cheklash bilan bog'liq jazolarning o'sha davrdagi xususiyatlari ochib berilgan.

Temuriylar davrida jazo va uning muqarrarligini ta'minlashga birinchi darajali masala sifatida qaralgan. Ushbu davrda mamlakatda mazkur masalalar turli huquq manbalari asosida tartibga solinganligini kuzatish mumkin. Xususan, jinoyat va jazo masalalari o'sha davrning konstitutsiyaviy hujjati bo'lgan "Temur tuzuklari" bilan birga, Chingizxonning Yasoq (Yaso) qonunlari asosida hal etilgan.

Mazkur davrda siyosiy tizimga tajovuz qilish hamda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar uchun nisbatan yengilroq jazo qo'llash tartibi amal qilgan. Masalan, Amir Temur mirzolariga darra urish, ma'lum bir muddatga qabul qilmaslik, martabadan tushirish kabi jazolar bilan cheklangan. "Temur tuzuklarida" keltirilishicha, mirzolar mavjud tizim va saltanatga qarshi bosh ko'tarsalar, ularning jazosi o'lim emas. Isyonkorlar o'z fikridan qaytgunicha zindonband etib turilgan. Muallif fikricha, buning asosiy sababi xalq noroziligini yuzaga keltirmaslik bo'lgan.

Xonliklar davrida ham nojo'ya xatti-harakat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazolashning o'ziga xos tizimi amal qilgan. Buxoro amirligida jazo tizimi quyidagi ketma-ketlikda bo'lgan: *jarima, qamchi yoki tayoq bilan urish, qamoq, turmaga yoki o'raga tashlash, qurolli kuchlarga topshirish, umrbod qamoq jazosiga mahkum etish, o'lim jazosi*. Qamoq jazosi beklklarda joylashgan zindon (qamoqxonalar)da ijro etilgan.

Mirshablar sha'riyat qoidalari buzilishining oldini olish, qamoq joyi, ya'ni zindonda hukm qilinganlarni saqlash va qo'riqlash ishlarini amalga oshirganlar. Muallif ilgari ham qamoq tariqasidagi jazoning ijrosiga ichki ishlar organlari o'rnida faoliyat yuritgan tuzilmalar mas'ul bo'lganligiga alohida e'tibor qaratadi.

Dissertant Chor Rossiyasi davrida tashkil etilgan dastlabki ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan maxsus muassasalar, faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va prinsiplari, shuningdek jazo o'tash rejimi jihatidan jazoni ijro etish muassasalari, xususan koloniyalar, turmalar va tergov izolyatorlariga juda o'xshash bo'lganligini qayd etib o'tgan.

Dissertatsiyada so'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilgan prinsiplarga muvofiq, jazo tizimi va sud ishlarini yuritish tartibi bosqichma-bosqich liberallashtirilganligi, mamlakatimizda shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yish

bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlarini tayinlash amaliyoti kengaytirilganligi qayd etilgan. Shu bilan birga, ma‘muriy qamoqqa olish jazosini qo‘llash samaradorligi va ta‘sirchanligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni uzluksiz amalga oshirib borish zarurati asoslantirilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining “*Ma‘muriy qamoqqa olish tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlarining huquqiy tavsifi*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida ma‘muriy qamoqqa olish jazosining mohiyati, maqsadi va vazifalari, shuningdek qo‘llash asoslari va shartlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Muallif Z.Ya. Babakalanov, X.X. Baxramov, I.A. Galagan, I.P. Dolgix, G.V. Ogrina, M.M. Poleshuk, A.V. Plexanova, S.M. Selimanova, Ye.A. Suponina, I.Tarasov, A.Trifonova kabi olimlarning qarashlarini o‘rganish asosida ushbu masalalarga oydinlik kiritishga harakat qilgan. Jumladan, uning fikriga ko‘ra, ma‘muriy qamoqqa olish quyidagi beshta xususiyati bilan boshqa ma‘muriy jazo choralardan jiddiy farqlanadi: 1) jazo chorasining o‘rnatilish tartibi bo‘yicha; 2) ma‘muriy javobgarlik sub‘ektlari bo‘yicha; 3) ma‘muriy yurisdiksiya sub‘ektlari bo‘yicha; 4) ma‘muriy jazolarning o‘zaro nisbati bo‘yicha; 5) huquqbuzarga ta‘sir ko‘rsatishi bo‘yicha.

Dissertant o‘z qarashlarini quyidagicha izohlashga harakat qilgan: *birinchidan*, shaxsni jamiyatdan ajratish, uning erkin harakatini cheklash bilan bog‘liq jazolar, xususan ma‘muriy qamoqqa olish qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan normalar O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi oliy vakillik organi (Oliy Majlis) tomonidan o‘rnatilishi mumkin; *ikkinchidan*, milliy qonunchiligimizda yuridik shaxslar javobgarligi istisno etilishini hisobga olganda, ushbu jazo turi faqatgina jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin; *uchinchidan*, konstitutsiyaviy qoidalarda belgilangan prinsiplarga muvofiq, mazkur jazo turini faqat sudlar tayinlashga haqli; *to‘rtinchidan*, ma‘muriy qamoqqa olish faqatgina asosiy jazo sifatida qo‘llaniladi, ya‘ni, boshqa jazo turlariga qo‘shimcha ravishda tayinlanmaydi; *beshinchidan*, shaxsga ma‘naviy-axloqiy, moddiy, shaxsiy va tashkiliy ta‘sir ko‘rsatish xususiyatlariga ega, og‘ir turdagi jazo chorasi hisoblanadi.

Dissertatsiyada javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlashga ko‘maklashish funksiyasi ma‘muriy qamoqqa olishning yana bir o‘ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo‘lishi asoslantirilgan. Ya‘ni, boshqa turdagi ma‘muriy jazo choralari ijroga qaratish imkoni bo‘lmagan hollarda yoki ularni qasddan bajarishdan bo‘yin tovlash holatlarida o‘rniga ma‘muriy qamoqqa olishni qo‘llash mumkinligi Moldova va Qirg‘iziston respublikalari qonunchiligida mavjud ilg‘or normalar bilan asoslab berilgan.

Muallif ishda ma‘muriy qamoqqa olinishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini o‘rganib, qonunchilikda qo‘llanilgan “ma‘muriy qamoqqa olingan shaxs” tushunchasi ostida fuqarolar bilan bir qatorda, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham tushinilishi lozimligini raqamlar bilan isbotlashga harakat qilgan. Jumladan, qo‘llanilgan ma‘muriy qamoqqa olish tarzidagi jazolarning 2019-yilda – 0,10 foizi, 2020-yilda – 0,03 foizi, 2021-yilda – 0,04 foizi, 2022-yilda – 0,05 foizi, 2023-yilda – 0,03 foizi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Dissertatsiyaning “**Ma’muriy qamoqqa olish jazosini qo‘llash va ijrosini ta’minlash sohasidagi muammolar va ularning yechimlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ma’muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash va ijrosini tashkil etishning bugungi holati tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi “*Ma’muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash bo‘yicha huquqiy amaliyot natijalari tahlili*”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ma’muriy qamoqqa olish tarzidagi jazolarni tayinlash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (MJtK) Maxsus qismi normalarining 11,8 foizida (45 ta moddada) ma’muriy qamoqqa olish jazosi ko‘zda tutilgan. Ya’ni, ushbu moddalarda keltirilgan 51 ta huquqbuzarlik tarkibi uchun ushbu jazo turi tayinlanishi mumkin.

Dissertant mazkur normalar tahlili asosida qonun chiqaruvchining sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatidan kelib chiqib, ma’muriy qamoqqa olish jazosining miqdorini belgilashga harakat qilganligini isbotlab bergan. Ya’ni, yuqoridagi qonun normalarida ham *nisbiy muayyan* ham *mutlaq muayyan* sanksiyalar nazarda tutilgan. Masalan, MJtKning 183-moddasida 15 sutkagacha bo‘lgan muddatda, 131-moddasida esa, 15 sutka muddatda ma’muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash mumkinligi belgilangan.

Dissertatsiyada bugungi kunda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish amaliyotida ma’muriy qamoqqa olish jazosini qo‘llash ehtiyoji oshib borayotganligi raqamlar bilan asoslab berilgan. Xususan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning 2019-yilda – 5,6 foiziga, 2020-yilda – 8,0 foiziga, 2021-yilda – 9,5 foiziga, 2022-yilda – 12,1 foiziga, 2023-yilda esa, 11,1 foiziga qamoq tariqasidagi ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilgan.

Muallifning fikricha, hozirda ma’muriy qamoqqa olish jazosini qo‘llashda birlamchi masala ushbu jazo turini qo‘llash asoslari va doirasini aniqlashtirib olish hisoblanadi. Bu borada ayniqsa yosh senzini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon davlatlari qonunchiligidagi ilg‘or normalar tahlili, shuningdek bugungi kundagi sud amaliyoti ehtiyojidan kelib chiqib, 60 yoshdan oshgan ayollar va 65 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan ma’muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash mumkin emasligini milliy qonunchiligimizda mustahkamlash zaruratining yuqoriligi asoslangan.

Bugungi kunda ma’muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo qo‘llanilgan shaxslarda jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiluvchi kasalliklarning aniqlanishi ham ushbu jazolarni ijro etishda turli muammolarning yuzaga kelishiga, xususan, jazo qo‘llanilgan ayrim shaxslarning shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj holatga tushib qolishlariga sabab bo‘lmoqda. Masalan, jami qamoqqa olish jazosi tayinlangan shaxslarning 2019-yilda – 0,17 foizi, 2020-yilda – 0,11 foizi, 2021-yilda – 0,23 foizi, 2022-yilda – 0,24 foizi, 2023-yilda – 0,21 foizi shifoxonaga o‘tkazilganligi munosabati bilan jazo o‘tashdan ozod qilingan. Shu bois, dissertant ma’muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar toifasiga jazo o‘tashga to‘sqinlik qiluvchi kasallikka chalingan shaxslarni ham kiritish lozim, degan xulosaga kelgan. Jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiluvchi kasalliklar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida belgilanishini taklif etgan.

Tadqiqot ishida sudlar tomonidan ma'muriy qamoqqa olish jazosini tayinlash vaqtida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning yoshi, jinsi, mehnatga layoqatlilik darajasi va sog'ligi yetarlicha hisobga olinmasligi tanqid qilinib, bu borada ayniqsa ayollarga nisbatan jazo tayinlashda yuqoridagi jihatlariga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi asoslab berilgan. Vaholanki, bugungi kunda ma'muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo choralari ayollarga nisbatan ham umumiy asoslarda qo'llanib kelinmoqda. Xususan, jami ma'muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo choralarining 2019-yilda – 2,6 foizi, 2020-yilda – 2,8 foizi, 2021-yilda – 3,8 foizi, 2022-yilda – 3,8 foizi, 2023-yilda – 3,4 foizi ayollarga nisbatan tayinlangan.

Muallif ayollarning fiziologik holati va jismoniy imkoniyatlarini, ularga nisbatan belgilangan xalqaro standartlar qoidalarini inobatga olib, MJtKning 29-moddasida ayollarga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ma'muriy qamoqqa olish eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emasligini huquqiy mustahkamlash lozim, degan xulosaga kelgan.

Bugungi kunda amaliyotda ma'muriy qamoqqa olish jazo turi jinoyatga yaqin bo'lgan huquqbuzarliklar uchun samarali ta'sir chorasi hisoblanadi. Shuningdek, boshqa turdagi ma'muriy jazolarni ijro etishdan qasddan bo'yin tovlash holatlarida alternativ holda qo'llanilishi mumkin bo'ladi. Muallif ushbu jazo turi asosan qanday turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun tayinlanayotganini statistik ma'lumotlar tahlili asosida ochib berishga harakat qilgan. Jumladan, sudlar tomonidan 2022–2023-yillarda ma'muriy qamoqqa olish jazosi qo'llanilgan huquqbuzarliklarning 36,1 foizini – MJtKning 183-moddasida, 23,5 foizini – MJtKning 187-modda 2-qismida, 18,9 foizini – MJtKning 194-modda 2-qismida, 7,1 foizini – MJtKning 47⁴-moddasida, 2,8 foizini – MJtKning 195-moddasida, 2,6 foizini – MJtKning 131-moddasi 2-qismida, 1,9 foizini – MJtKning 185³-moddasida, 1,8 foizini – MJtKning 59²-moddasi 2-qismida, 1,3 foizini – MJtKning 201-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmishlar, shuningdek, qolgan 4,0 foizini boshqa turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar tashkil etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "*Ma'muriy qamoqqa olish jazosi ijrosini tashkil etishning bugungi holati*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida ichki ishlar organlarining ma'muriy qamoqqa olish jazosini ijro etishga doir faoliyatining bugungi holati, mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonunni amaliyotda qo'llash sohasidagi muammolar o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarga alohida hollarda, ya'ni yaqin qarindoshining vafoti yoki yaqin qarindoshning hayotiga tahdid soluvchi og'ir kasallik, ma'muriy qamoqqa olingan shaxsga yoki uning oilasiga ancha miqdorda moddiy zarar yetkazgan hodisa yuzaga kelganida unga ikkala tomonga borib-kelish vaqti (ikki sutkagacha) hisobga olinmagan holda bir sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga maxsus qabulxona hududidan O'zbekiston Respublikasi doirasida chetga chiqishga ruxsat berilishi mumkinligi belgilangan.

Biroq, ma'muriy qamoqqa olingan shaxsning oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarida yoki oliy o'quv yurtini bitirish davlat imtihonlarida ishtirok etishi lozim bo'lgan holatlar ko'zda tutilmagan. Bu esa, kelgusida oliy o'quv yurtiga kira olmagan

yoki uni bitira olmagan shaxslarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilgan holda, ularning xulq-atvorida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga zamin yaratishi mumkin. Shu bois, muallif Qonunning 19-moddasida oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida ishtirok etish yoki davlat imtihonlarini topshirishda ishtirok etish uchun ham maxsus qabulxona hududidan chetga chiqishga ruxsat berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Dissertant bugungi kunda amaliyotda ma'muriy qamoqqa olingan shaxs bilan jinoyat ishlari doirasida tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv va tergov (sud tergov) harakatlarini o'tkazish zarurati yuzaga kelayotganligi sababli mazkur jarayonlarni tartibga solishning qonuniy asoslarini yaratish lozim, degan xulosaga kelgan hamda Qonunni ma'muriy qamoqqa olingan shaxs bilan tezkor-qidiruv, tergovga qadar tekshiruv va tergov (sud tergov) harakatlari mazkur harakatlarni amalga oshirayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organ (sud)ning qarori va prokurorning sanksiyasiga asosan amalga oshirilishi mumkinligini belgilovchi yangi 19¹-modda bilan to'ldirishni taklif etgan.

Dissertatsiyada ma'muriy qamoqqa olish jazosini o'tash bilan bog'liq amaliyotda yuzaga keluvchi muammolardan biri sifatida sud tomonidan jazo tayinlangan shaxsga nisbatan jinoyat ishi doirasida ehtiyot chorasi sifatida qamoq belgilangan hollarda ma'muriy qamoq qanday o'talishi yoki bunday hollarda ehtiyot chorasi qachondan boshlab ijroga qaratilishi mumkinligi qonunchilikda nazarda tutilmaganligi tanqid qilingan.

Bu o'rinda muallif ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni maxsus qabulxonalardan ozod qilish asoslari doirasini kengaytirish lozim deb hisoblaydi. Shu bois, Qonunning 32-moddasida ma'muriy qamoqqa olingan shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining qo'llanilishi uning ma'muriy qamoqdan ozod etilishi uchun asos bo'lishi mustahkamlanishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Ma'muriy qamoqqa olish jazosini qo'llash va ijrosini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida ma'muriy qamoqni qo'llash va ijrosini tashkil etish borasidagi ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili amalga oshirilgan hamda respublikamizda ushbu jazo chorasini qo'llash va ijrosini takomillashtirish yo'llari asoslab berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Ma'muriy qamoqni qo'llash va ijrosini tashkil etish borasidagi ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili”*ga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif tomonidan bir qator MDH davlatlari (Ozarbayjon, Moldova, Rossiya, Belarus, Ukraina, Qozog'iston) qonunchiligi va amaliyoti o'rganilgan holda milliy tizimni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Dissertatsiyada ma'muriy huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun ma'muriy jazo tayinlash amaliyoti mavjud bo'lgan davlatlar hamda qonunchiligimizga yaqinligi nuqtai-nazaridan ayrim MDH davlatlarining ma'muriy qamoqni qo'llash va ijrosini tashkil etish borasidagi quyidagi ijobiy tajribalari qiyosiy tahlil qilingan.

Ozarbayjonning *“Ma'muriy qilmish (xatti-harakat)lar to'g'risida”*gi kodeksiga muvofiq, ma'muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo turi faqatgina sudlar tomonidan, qonunda nazarda tutilgan alohida hollarda, shuningdek alohida turdagi huquqbuzarliklar uchun uch kundan uch oygacha bo'lgan muddatda qo'llaniladi. Ahamiyatli jihati, ushbu davlat qonunchiligiga asosan, sud ma'muriy qamoq jazosini tayinlash vaqtida huquqbuzarning shaxsini o'rganishi lozim. Shunga ko'ra, agarda

shaxs giyohvandlik vositalari (ularning analoglari) va psixotrop moddalarni is'temol qilishga ruju qo'ygan bo'lsa, sud o'z qarorida uning majburiy davolanishga yuborilishi masalasini hal etishi shart.

Moldova qonunchiligiga asosan, shaxsni ma'muriy qamoqda saqlash muddati tugagach qabulxonani tark etishi sutkaning turli vaqtiga (masalan, tungi vaqtga) to'g'ri kelishi hisobga olinib, saqlash muddati oxirgi kunining 23-soati o'tgach, shaxsning yozma arizasiga asosan uni keyingi kunning 6 soatigacha bo'lgan muddatda maxsus qabulxonada qoldirishga ruxsat etiladi. Mazkur qoidaning milliy qonunchiligimizga kiritilishi shaxsga tungi vaqtda yaqin qarindoshlarini chaqirtirish va sarson qilishini oldini oladi.

Rossiyaning ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari jazo tayinlashda o'ziga xos profilaktik ahamiyatga ega. Jumladan, Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksning (MHtK) 20.25-moddasida huquqbuzar tayinlangan jarima jazosini qonunda belgilangan muddatda ijro etmaganda yoki bo'yin tovlaganda, tayinlangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi jarimani ma'muriy qamoqning bir kuniga tenglashtirgan holda almashtirilishi mumkinligi belgilangan. Bu esa, jazo muqarrarligini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Belarusda (MHtKning 4.9-moddasi) qoida tariqasida ma'muriy qamoq jazosi ijro etilgandan bir yil o'tgach shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxs jazoni ijro etayotgan vaqtda uni ma'muriy qamoqqa olishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi holatlar yuzaga kelganda, shaxs jazodan ozod qilingan kundan boshlab, ma'muriy jazoga tortilmagan deb topiladi:

- 1) ayolning homilador ekanligi aniqlanganda;
- 2) shaxsning I va II guruh nogironligiga ega bo'lishi;
- 3) qaramog'ida voyaga yetmagan bolasi bo'lgan ayollar yoki yolg'iz erkaklar;
- 4) qaramog'ida I guruh nogironligi bo'lgan yoki 80 yoshga to'lgan qariyalar bo'lgan shaxslar.

Ukraina qonunchiligidagi o'ziga xos jihat shundan iboratki, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan alohida turdagi harbiy ma'muriy huquqbuzarliklar uchun gauptvaxtada o'taladigan ma'muriy qamoq jazosi tayinlanadi (MHtKning 32.1-moddasi). Ushbu jazo tuman (shahar) sudlari tomonidan qo'llaniladi. Qonunchilikda alohida istisno holat ham nazarda tutilgan bo'lib, u ayol harbiylarga taalluqli hisoblanadi. Ushbu jazo turi ularga nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

Qozog'iston qonunchiligiga muvofiq, ma'muriy qamoqqa olish tarzidagi jazo qo'llanilishi mumkin bo'lgan shaxslar toifasi belgilangan bo'lib, milliy qonunimizdan farqli ravishda unda 14 yoshga to'lmagan farzandi bo'lgan ayollar, 58 yoshdan oshgan ayollar va 63 yoshdan oshgan erkaklar kiritilgan. Bu albatta ushbu davlat qonunchiligidagi o'ziga xos ijobiy holat bo'lib, davlatda amalga oshirilgan liberallashtirish siyosatining natijasi hisoblanadi.

Mazkur bobning "*O'zbekistonda ma'muriy qamoqqa olish jazosini qo'llash va ijrosini takomillashtirish yo'llari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida mamlakatimizda ushbu jazo turini qo'llash va ijrosini tashkil etishning bugungi holati tadqiq etilgan hamda uni takomillashtirish istiqbollari yoritilgan.

Dissertantning fikricha, ma'muriy qamoqqa olish jazosining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu – uning profilaktik xususiyatga ega ekanligi hisoblanadi.

Ya'ni, uni boshqa turdagi ma'muriy jazo choralarini ijro etishdan bo'yin tovlash yoki ijro etishning real imkoniyatlari bo'lmagan hollarda o'rniga qo'llash mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda amaliyotda jarima tarzidagi ma'muriy jazolarni ijro etishdan bo'yin tovlash holatlari ko'plab kuzatiladi. Bunday holatlarning asosiy sabablaridan biri – amaldagi MJtKda ushbu jazoni boshqa turdagi jazolarga almashtirish mexanizmlarining nazarda tutilmaganligidir. Bu esa, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga jazoni ijro etishdan bo'yin tovlash imkoniyatini yaratib, javobgarlikning muqarrarligi prinsipini kafolatlashga to'sqinlik qilmoqda.

Muallif ushbu holatni aniq statistik ma'lumotlar bilan asoslashga harakat qilgan. Jumladan, 2022-yilda sudlar tomonidan jami 114.755 ta jarima turidagi ma'muriy jazo qo'llanilib, 81.936.572.541 so'm jarima belgilangan bo'lsa, yil davomida ixtiyoriy undirilgan miqdori 17.395.209.393 so'mni (jami jarima summasining 21,2 foizini) tashkil etadi. Majburiy tartibga undirish uchun MIBga yuborilgan jarimalar miqdori 52.089.028.494 so'mni (jami jarima summasining 78,8 foizini) tashkil etadi. MIB tomonidan yil davomida majburiy tartibga ijroga qaratilgan jarima miqdori esa, 24.967.259.633 so'mni (majburiy ijroga yuborilgan jarima miqdorining 47,9 foizini) tashkil etadi. Ko'rinib turibdiki, tayinlangan jazolarning qolgan qismi turli sabablarga ko'ra ijroga qaratilmagan.

